



# ЖУРНАЛ ИССЛЕДОВАНИЙ И РАЗВИТИЯ THE JOURNAL OF RESEARCH AND DEVELOPMENT TADQIQOT VA TARAQQIYOT JURNALI

ISSN: 3030-3281. Volume III, Issue-1, (January) 2025  
Journal homepage: <https://imfaktor.com/index.php/tjrd>

**SAMIJONOVA Mohira**  
*Namangan Davlat Universiteti*  
*tarix mutaxassisligi*  
*I kurs magistranti*

## O‘ZBEKLARNING XIX ASR OXIRI VA XX ASR BOSHLARIDAGI LIBOSI

### ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada o‘zbeklar hayotining ajralmas qismi hisoblangan hunarmandchilik, o‘zbeklarning XIX asr oxiri va XX asr boshlaridagi kiyim-kechaklari, erkaklar libosi va ayollarning libosini farqli tomonlari, kiyimlarning tarixi, kiyimlar orqali jamiyatdagi insonlarning mansabi, roli haqida ma’lumotlar keltirib o‘tilgan. Shuningdek, marosim va motam kiyimlarining turlari haqida ham ma’lumotlar beriladi.

**Kalit so‘zlar:** hunarmandchilik, kiyim-kechak, chopon, belbog‘, mahsi, mursak, paranji, kamzul.

### ANNOTATION

This article discusses craftsmanship as an integral part of Uzbek life, as well as clothing styles of Uzbeks at the end of the 19th and the beginning of the 20th centuries. It highlights the differences between men’s and women’s attire, the history of clothing, and how garments reflected individuals' social status and roles in society. Additionally, information is provided about ceremonial and mourning attire.

**Keywords:** craftsmanship, clothing, chapon, belt, mahsi, mursak, paranji, kamzul.

### АННОТАЦИЯ

В данной статье рассматривается ремесленное дело как неотъемлемая часть жизни узбеков, а также одежда узбеков конца XIX – начала XX века. Освещаются различия между мужской и женской одеждой, история костюма и его роль в отражении социального статуса и положения человека в обществе. Также представлена информация о видах церемониальной и траурной одежды.

**Ключевые слова:** ремесло, одежда, чапан, пояс, махси, мурсак, паранджа, камзул.

O‘zbek xalqi qadimdan usta, hunarmand, kosib bo‘lgan. Arxeologlar fikricha, kiyim-kechak insoniyatning dastlabki davrlaridayoq yaratilgan. Insoniyatning ibtidoiy kiyim-kechaklari qanday bo‘lganligi haqidagi dastlabki ma’lumotlarni biz arxeologik qazilmalar jarayonida topilgan devoriy suratlar, turli buyumlarga tushirilgan tasvirlar, shuningdek, o‘rta asrlar davriga oid kitoblardagi miniaturalar orqali ma’lumotlar olishimiz mumkin.

Kiyim-kechak insonni sovuqdan, issiqdan, har xil tashqi omillardan asrash maqsadida yaratilgan. Insoniyat taraqqiyotining har bir bosqichida kiyim-kechak turlari ham o‘zgarib, rivojlanib borgan. O‘troq tarzda turmush kechiradigon aholi ip, gazlamalardan foydalanib kiyim-kechak tikkan bo‘lsa, ko‘chmanchi chorvadorlar esa hayvonlarning junlaridan foydalangan holda kiyim-kechak tikkanlar.

Qishloqlarda yashovchi har bir xonadonlarda o'zining ip yigirish va to'qish dastgohlari bo'lgan va bu ishlarni deyarli xonadonning keksa ayollari, onaxonlari bajargan.

Hunarmandchilikning rivoji natijasida alohida hunarmandlar mahallasi, hunarmandlar qishlog'i va hunarmandchilik markazlari tashkil topadi. Buyurtma uchun narsa tayyorlaydigan hunarmandlar ham paydo bo'ladi. Oqibatda, bir shahardan boshqa davlatga hunarmandchilik mahsulotlari ayirboshlash yo'lga qo'yiladi. Hunarmandchilikning turlari ham kengayib, misli ko'rilmagan darajada rivojlanadi. Faqatgina sanoat ishlab chiqarilishi yo'lga qo'yilgunga qadar rivojlangan davlatlarda hunarmandchilik mahsulotlari kam uchrasada, lekin kam rivojlangan davlatlarda hozirgi kunda ham hunarmandchilik asosiy ro'l o'ynaydi.

O'zbeklarning XIX asr va XX asrlardagi libosi oldingi davr shakllarini saqlab qolgan bo'lsada, lekin ayrim qismlari ancha o'zgargan edi. O'zbek erkaklarining libosi ko'ylak va ishton, ustki chopon, belbog', bosh kiyimi va poyafzaldan iborat bo'lgan [1].

O'zbeklar orasida keng tarqalgan kiyim turi bu –chopon hisoblanadi. Chopon – kiyim ustidan kiyiladigan, ichiga paxta solib qavilgan uzun milliy kiyim. Choponning paxtali chopon, zarbof chopon, beqasam chopon kabi turlari mavjud bo'lgan. Choponni o'zbeklarning barcha hududida yashovchi aholi kiygan. Qishloq aholisining choponi anchagina oddiy, bezaklarsiz bo'lgan. Shahar aholisining, ayniqsa, davlatmand kishilarining choponining yengllari va etak qismlari ipak iplari bilan bezatilgan edi. Badavlat xonadon egalari boyliklarini ko'z-ko'z qilish va manmanlik qilib hashamdor bezatilgan choponlarini kiyib yurganlar. Qishloq aholisi esa, paxtalik choponini kiygan. Chopon o'sha vaqtlarda eng obro'li kiyim turi hisoblanib, mehmon uchun qadrlil sovg'a bo'lgan [2].

Erkaklar kiyim-kechaklari orasida bosh kiyim hisoblangan do'ppi ham alohida o'rin tutgan. Do'ppilarning ko'rinishi yumaloq va yuqori qismi tekis bo'lgan do'ppilarni kiyishgan. Oila qurgan erkak va ayollar ham asosan shu turdagi do'ppilarni kiyib yurishgan. Bundan tashqari erkaklarning belbog'i ham turlicha bo'lgan. Belbog'(chorsi, qiyiq, qiyiqcha, belqars) – belga bog'lanadigan to'rtburchak shakldagi mato, milliy kiyimning tarkibiy qismi [3].

Turkiy xalqlarda erkaklar kiyimi (to'n, yaktak va boshqalar) ustidan belga bog'lanadi, ba'zan ikki va undan ortiq belbog' bog'lab yurish odati bo'lgan. Bundan tashqari, belbog'ning ham gulli va gulsiz matodan tayyorlangan, kashta bilan bezatilgan turlari bo'lgan.

Bundan tashqari, o'zbek erkaklarining mullacha ko'ylak deb atalgan turi ham mavjud bo'lgan. Mullacha ko'ylak yengllari uzun va keng, yoqasi ko'ndalang o'yi bo'lgan. Shuningdek, yoz oylarida erkaklarning yengil kiyimi yaktak ham bo'lgan. Yaktak – yozgi, yengil kiyim.[4].

Oldi ochiq, uzun, yengil hamda tik yoqali. Yaktak asosan oq (bo'z) surp, shuningdek, yo'l-yo'l matolardan tikilgan.

XII-XIII-asrlardan yozma manbalarda yaktak haqida ma'lumotlar bor, V-VI-asrlarga oid devoriy rasmlar hamda miniaturalarda yaktak tasviri uchraydi. Shuningdek, XIX-asr o'rtalaridan, shahar aholisi hayotiga yangi kiyim kamzol kirib keladi. Kamzol – chopondan ancha yengil, astarli qilib tikilgan. Ko'pincha yoz oylarida katta yoshlilar kiygan. Erkaklar beldan pastiga ishton kiyishgan. Ishton 2 turda bo'lgan: ichki - dizdan ishton, ustki - cholvur deb yuritilgan. Ishtonning yuqori qismi qayrilib tikilib, ichidan ip o'tirilgan va belga bog'lab qo'yilgan. Ishtonlar odatda oq bo'z yoki chitdan tikilgan, cholvur qalin to'qilgan paxta mato yoki baxmaldan tikilib, qish kunlari uzoq safarga chiqqanda kiyilgan. Qimmatbaho matolardan tikilgan cholvurlar asosan boy oiladan chiqqan erkaklar kiyishgan. Ba'zi hollarda chavandozlar va ovga chiqqan ovchilar qalin jun mo'ynadan tayyorlangan matolardan tikilgan cholvurlar kiyishgan.

Bundan tashqari, erkaklarning eng asosiy poyafzali mahsi-kovush bo'lgan. Mahsi (massi) – mayin, pishiq qo'y yoki echki terisidan tayyorlangan poshnasiz, baland qo'njli poyabzal [5].

Tag charmi yalang qavat va yumshoq bo'lgani uchun kavush bilan kiyilgan. Mahsiga o'xshash oyoq kiyimlari tasvirini Afrosiyob devoriy rasmlarida (V-VII asrlarga oid) ko'rish mumkin. Qadimda paypoq bo'lmagani bois, ota-bobolarimiz paytavalardan foydalanganlar. Paytavalilar paxtadan tayyorlangani bois, issiqda ham sovuqda ham yaxshi samara bergan.

O‘zbek ayollarining XIX asr o‘rtalari va XX asr boshlaridagi kiyim-kechaklari asosan ko‘ylak, ishton, xalat (mursak, to‘n, kaltacha) edi. Ayollarning ustki kiyimi chopon-mursakdan iborat bo‘lgan [6].

Mursakni XIX asrning oxiriga qadar mahalliy matolar hisoblangan adras, beqasam va shoyidan tikishgan. Mursaklar bir-biridan etagi va yengining uzunligi, kengligiga qarab farq qilgan. Mursak ayniqsa, XIX asrning 70-90-yillarida urf bo‘lgan. Badavlat oiladan chiqqan qizlarning sepida qimmatbaho matolardan tikilgan 2 tadan 18 tagacha mursaklar bo‘lgan. Shuningdek, mursaklar kuyovning ota-onasi tomonidan kelinlarga sovg‘a qilingan. Keyinchalik XX asrning 20- yillaridan boshlab mursaklar kam ishlatila boshlangan.

U faqatgina motam marosimlaridagina kiyilgan. Ushbu davrda ayollar boshlariga ro‘mol, salla, kasava, kulta, lachan kabilarni o‘rab yurganlar. Shuningdek, paranji yopinib yurganlar. Paranj – ko‘pchilik musulmon ayollarining yopinchig‘i. Ayollar gavdasini boshidan oyoq yashirib turishga xizmat qilgan. Ayollar doimiy ravishda paranji yopinib yurishgan faqatgina XX asrdagi ijtimoiy o‘zgarishlar bo‘lguniga qadar urfda bo‘lgan. XIX asr o‘rtalariga kelib, ayollar o‘rtasida kamzul urf bo‘ladi.

Kamzul – ikki yon cho‘ntakli, yoqasi yotiq holatda ichi astarlik qilib tikilgan ustki kiyim turi [7].

Ayollar poyafzali ham asosan mahsi va kovushdan iborat bo‘lgan bo‘lib, u ko‘cha poyafzali hisoblangan. Uyda esa asosan kovush kiyishgan. XIX-XX asrlarda Rossiyaning O‘rta Osiyo mintaqasiga ta’siri kuchayishi natijasida savdo-sotiq aloqalari kuchayadi. Rossiyadan ko‘plab gazlamalarning keltirilishi natijasida, kiyim-kechak tikish usullari, bichimi, bezaklari va ranglariga o‘zgartirishlar kiritiladi. XX asrda tikuv mashinalarini ko‘plab keltirilishi natijasida esa, tikuvchilar ishini ancha yengillashtiradi, mahalliy tikuvchi hunarmandlarning bozori kasod bo‘lishiga olib keladi.

Xulosa qilib aytganda, ushbu davr liboslaridagi o‘ziga xos an’naviy jihatlar hozirgi kunga qadar o‘z ahamiyatini yo‘qotmagan. Hozirgi zamonamizda urfda bo‘lgan kiyimlarning ham ildizi yuqorida aytib o‘tilgan chuqur tarixiy ildizga borib taqalishini ko‘rishimiz mumkin.

**FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR**

1. Xolliyev G., G'ulomov X. O'zbekiston tarixi. – T.: “Universitet”, 1997. – B.46.
2. Norqulov N., Jo'rayev U. O'zbekiston tarixi. – T.: “Sharq”, 2010. – B.219.
3. <https://uz.wikipedia.org/wiki/Belbog>
4. <https://uz.wikipedia.org/wiki/Yaxtak>
5. <https://uz.wikipedia.org/wiki/Mahsi>
6. Muqminova R.G., Habibullayev N.N., A'zamova G.A., Karimov E.E., Tojiboyev A.A. O'zbekiston tarixi. – T.: “O'qituvchi”, 1994. – B.187.
7. <https://uz.wikipedia.org/wiki/Kamzul>

---

<sup>7</sup><https://uz.wikipedia.org/wiki/Kamzul>